

**“O‘zbektelekom” AKning 2024-yil davomida korrupsiyaviy xatti-harakatlarga
doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi
HISOBOT**

I. Umumiy ma’lumot

Aloqa kanallari orqali jami 90 ta murojaat kelib tushgan. Shu jumladan, telegramm bot kanali orqali 30 ta, ishonch telefon raqamiga 60 ta murojaat kelib tushgan.

II. Ko‘rib chiqish natijalari

Ushbu murojaatlarni o‘rganib chiqish natijalariga ko‘ra, ularning mazmuni korrupsiyaviy xatti-harakatlar bilan bog‘liq bo‘lmasdan, jismoniy shaxslar tomonidan telekommunikatsiya xizmatini ko‘rsatish yuzasidan kelib chiqqan muammolarni ijobiy hal qilish bo‘yicha murojaatlar (Wi-Fi qurilmasining nosoz holatda ekanligi, internet xizmatining sifat darajasi pastligi yoki ma’lum bir sabablarga ko‘ra ishlamasligi va boshqalar) sifatida qayd qilindi. O‘z navbatida, har bir murojaat Kompaniya tegishli mutaxassislariga yo‘naltirilib, fuqarolarning murojaatlari ijobiy hal qilinishiga erishildi.

III. Minimallashtirish choralari.

Bugungi kunda Kompaniyaning barcha savdo va xizmat ko‘rsatish ofislarida Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ishonch telefon raqami (+998 55 501 77 87) va boshqa aloqa kanallari xaqidagi ma’lumotlar joylashtirilgan. Shuningdek Kompaniyada tuziladigan xar bir shartnomada ishonch raqami va elektron pochta aks ettiriladi. Shuningdek bir yilda bir marotaba Korrupsion xavf-xatarlarni baholash reestrini olib borish (bir yilda kamida bir marotaba), Kompaniya xodimlarining huquqiy ong va madaniyatni yukasaltirish boyicha o‘quv seminarlar o‘tkazish orqali Korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir qilinishini oldini olish bo‘yicha malakasini oshirish (bir yilda kamida bir marotaba).

“O‘zbektelekom” AK

Komplaens departamenti direktori



R. Toshpo‘latov